

NOTIQLIK SAN'ATI YOXUD BOLALARNI TO'G'RI SO'ZLASHGA O'RGATAMIZ

Dilfuza Paraxadova,

JDPI talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent Surayyo Eshonkulova

So'zni jahon bahrida durdona bil...

(Alisher Navoiy)

O'zbek filologiyasida nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda, tilimizning kommunikativ sifatini, imkoniyatlarini o'rganish ishiga ham katta e'tibor berib kelinmoqda. Mana shunday ham nazariy, ham amaliy muammolardan biri – nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishdir. Nutq madaniyati keyingi yillarda filologiyaning mustaqil ilmiy yo'nalishi sifatida shakllandi va rivoj topmoqda. Shu bilan birga, bu sohaning ko'pgina muammolari hali o'zining asosli va chuqur tadqiqini topganicha yo'q.

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Notiqlik san'ati Qadimgi yunoniston va Rimda vujudga kelgan. Notiqlik san'ati quldorlikning, savdo-sotiq va sud ishlarining jadal rivojlanishi natijasida san'at darajasiga kotarildi. Yunoniston ko'plab notiqnlarni jahonga yetkazib berdi. Lisiy, Demosfen, Perikl, Aristotel shular jumlasidandir. Notiqnlarning o'rni asosan sud ishlarida muhim bolgan, chunki qullar sud jarayonida o'zlarini oqlay olishmagan. Notiqnlar esa ayblanuvchilarga nutq matnini yozib bergan va shu orqali ayblanuvchilar o'zlarini himoya qila olgan.

So'z san'ati, notiqlik, nutq madaniyatiga qadim-qadimdan yuksak e'tibor qaratilar ekan, bu sohada G'arb allomalari so'z bilan ta'sir ko'rsatish, kishilarni ishontirish mahorati haqidagi qarashlarini bayot etishgan bo'lsa, Sharq mutafakkirlari, asosan, suhbat odobi, tinglash madaniyati to'g'risida mulohaza bildirishgan. Masalan, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Mahbub

ul-qulub”, “Nazm ul-javohir” asarlari o‘zbek tilida nutq tuzishning go‘zal namunalari bo‘lishi bilan birga, uning yuksalishiga ham katta hissa qo‘shgan.

Alisher Navoiy o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida har bir tilning katta yoki kichikligidan qat’iy nazar, o‘ziga xos ijobiy tomonlari borki, ularni boshqa biror tildan topib bo‘lmaydi, degan fikrni aytib, fors tili shuhrat topgan til bo‘lishiga qaramasdan, turkiy tilda bo‘lgan ba’zi bir imkoniyatlar unda yo‘qligini bayon etadi va dalil sifatida o‘sha davr o‘zbek tilida amal qilgan 99 dona fe‘lni keltirib, ular fors tilida yo‘q ekanligini ko‘rsatadi.

Navoiy “Mahbub ul-qulub”da tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikrni to‘g‘ri aks ettirishi lozimligi haqida shunday deydi: *“Saodatbaxsh ruh zuloliga matla’ ham til. Tilga iqtidorlig’ – haqimi xiradmand, so‘zga ixtiyorsiz – layni najnad. Tilki fasih va dilnazir bo‘lgay, xubroq bo‘lgay agar ko‘ngil bila bir bo‘lgay”*. (“Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manba ham til, baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tilga kuchi yetadigan (kishi) aql podshosidir. So‘zga ahamiyat bermaydigan (kishi) la’natlangan, past (kishi) dir. Til go‘zal va dillarni olovlantiruvchi bo‘lishi bilan birga, (so‘zlovchining) dilidagini aks ettirsa, yanada yaxshiroq bo‘ladi”) [5].

Ravshanki, bunda Navoiy til deganda nutqni ko‘zda tutgan.

Til, ya’ni so‘z o‘zining juda ko‘p yaxshi fazilatlarini bilan nutq uchun material ekanligi, nutqning qo‘polligi, maqsadga nomuvofiq bo‘lishi so‘zlovchiga zarar yetkazishi haqida: *“Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo‘lsa, boshning ofatidir...”* [5], – deydi.

Mayin, yoqimli shirali ovoz bilan so‘zlash odobi haqida, o‘ylamasdan so‘zlamaslik haqida yozadi: *“Tildin azubat dilpisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig‘liqqa evruldi, zarayi oyi bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngillarga nushdur... So‘zni ko‘nglungda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko‘nglungda bo‘lsa, tilga surma”*. (“Tilning shirin, yoqimli va yumshoqligi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylana, ommaga (tinglovchiga) zarar yetadi. Qandni mast qiluvchi aroq qilsalar, harom bo‘ladi. Chuchuk so‘zni toza ko‘ngillar

simiradi... So‘zni ko‘nglingda pishitib olmaguncha so‘zlama, ko‘nglingda bo‘lgan har qanday fikrni ham ayta berma”) [5].

Demak, nutq odobi, agar masalaga til nuqtayi nazardan qaraladigan bo‘lsa, bu, eng avvalo, **nutqning to‘g‘riligi** demakdir. Ikkinchidan esa, u **uslubiy jihatdan silliq bo‘lishi** kerak, ya’ni unda noaniqlikka, ikki ma’noilikka, uzundan-uzoqlikka yo‘l qo‘yilmasligi, **qisqalik**, **soddalik** va **aniqlik** bu nutqning asosiy o‘lchovi bo‘lishi lozim. Keng ma’noda esa nutq odobi nutqiy ta’sirchanlikni, ijodiy yorqinlikni, o‘tkirlik va obrazlilikni ifoda etadi.

Bobomiz Alisher Navoiy fikrlariga tayanib, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda kimgadir ma’lum bir axborotni tushunarli va chiroyli qilib yetkazib berish juda muhimdir. Ayniqsa bugungi dunyoqarash ruhida tarbiyalanayotgan har bir hodim tog‘ri va savodli yozish, o‘qish bilan birgalikda chiroyli gapirish, nutqiy madaniyat va notiqlik san’ati sirlaridan xabardor bo‘lishi bugungi kun talabidir.

Notiq bo‘lish uchun bolalarga maktablarda ritorika fanini o‘rganishga alohida e’tibor qaratishgan. Misrda esa faqat notiqlarni o‘qitadigan maktab ham bo‘lgan. Notiqlik san’ati sarkardalik bilan tenglashtirilgan. Bugungi kunda nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, tinglovchiga o‘z fikrimizni aniq tushuntirib berishimiz uchun ham bu fan maktab darsliklariga ham kiritilishi kerak degan fikrdaman. Chunki o‘quvchilar maktabda o‘z fikrini bemalol bayon qila olishi, o‘z fikri haqida bahs yuritishi kerak. Lekin afsuski bizda bunday emas. O‘quvchilar maktabda, kollej, litseylarda faqat o‘qituvchini tinglab o‘rganib qolishgan, buning natijasida ular institut va universitetlarda o‘z fikrini aniq tushuntirib bera olishga dastlabki davrlarda qiynalishadi. O‘zlari bilgan narsalarni tinglovchiga chiroyli ta’riflab berolmaydilar. Bugungi kunda bu masalaga alohida e’tibor qaratish lozim. Birinchi prezidentimiz Islom Abduganiyevich Karimovning *“O‘z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, gozal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avallambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin”*, – degan fikri ham ancha o‘rinli.

Fikrimizni o‘z ona tilimizda mustaqil, ravon, go‘zal va lo‘nda va asosiysi to‘g‘ri ifodalash uchun bizda nutqiy madaniyat, notiqlik yetarli darajada shakllanmog‘i kerak. Umuman. yosh avlodda notiqlik qobiliyatini shakllantirish va izchil kamol toptirish, bu yo‘lda samarali yo‘llarni o‘ylab topib ta‘limga yo‘naltirish oqituvchilarimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ilmiy adabiyotlarda bola nutqini rivojlantirishning ikki davri: muloqot uchun tayyorlanish (bir yoshdan uch yoshgacha) va erkin nutqiy faoliyatga o‘tish bosqichlari (to‘rt yoshdan yetti yoshgacha) farqlanadi. Mutaxassislar bir yoshli bolaning faol lug‘atida 10-12 ta so‘z bo‘lishini ham qayd etadilar. Manbalarda 1,2-2 yoshli sog‘lom bola nutqida 300-400 ga yaqin so‘z ishlatilsa, 3-4 yoshida bolaning nutqiy zahirasi 1200-2000, 5-6 yoshda 2500-3000, 7-yoshida esa 3500-6000 atrofida bo‘lishi haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Mashhur psixolog, akademik R.S.Nemov 4-5 yoshlarida bola o‘z ona tili grammatikasini maxsus bilimlarsiz osongina o‘zlashtirishi, 6 yoshida bolaning lug‘at zahirasi taxminan 14000 so‘zdan iborat bo‘lishi, so‘z shakllari, fe‘l zamonlarini farqlashi, nutqida gapning turli ko‘rinishlaridan foydalana olishi, 4 yoshli bola nutqida hatto murakkab qo‘shma gap ko‘rinishlari ham uchrashi mumkinligini takidlaydi.

Muloqotga tayyorlanish davrida bola yaqinlari tomonidan ishlatilgan eng zarur so‘z va iboralar hisobidan nutqiy zahirasini to‘ldirsa erkin nutqiy faoliyatga o‘tish davrida (4-7 yosh) bola lug‘atini katta tezlik bilan to‘ldirish (2000 dan 14000 gacha) uchun psixologik jihatdan ham, fiziologik jihatdan ham tayyor bo‘ladi. Bilamizki, namunali nutqiy faoliyat uchun, avvalo, silliqlangan, sayqallangan til kerak va bu adabiy tildir. Nutqning nutqiy bo‘lmagan hodisalar bilan munosabatida uning ana shu til bilan munosabati asosiy o‘rinni egallaydi. Chunki nutqning to‘g‘rilik, aniqlik, tushunarlilik, soflik, ta‘sirchanlik, ixchamlik kabi asosiy xususiyatlari aynan tilning nutq bilan munosabati asosida shakllanadi. Shaxsdagi namunali nutq uning saviyasi, madaniyatini belgilab beradi. U muomala madaniyatini puxta egallagan bo‘lishi lozim. Nutqiy muloqot, bilamizki, turli vaziyatlarda turli saviyadagi shaxs yoki shaxslarda bo‘ladi. Bunday nutq sekin asta o‘z-o‘zidan namunali nutqqa aylanadi. Nutq madaniyati sohasining

taraqqiyoti haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu sohaning rivoji, albatta, shaxsdagi og'zaki va yozma nutqni shakllantirish imkoniyatlarining qanchalik tashkil etilganligiga bog'liq. Chunki og'zaki nutq har qanday insonda bor bo'lib, u shaxsning fikri, tafakkuri mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Lekin yozma nutq ham, o'z o'rnida, xuddi og'zaki nutq kabi fikr va tafakkur mevasidir. Shunday ekan, bu ikki hodisani bir-biridan ayro holda tadqiq etib bo'lmaydi. Nutq madaniyati hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb muommolaridan biridir. Bu muommoni hal etish umummadaniyatimiz taraqqiyoti shuningdek, oily maktablarda, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, umumiy o'rta ta'lim maktablar va umuman dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog'liq. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda nutq madaniyati kursining barcha o'quv yurtlarida o'rgatilishi quvonarlidir. Chunki notiqlik san'ati sirlarini o'rganish, o'z fikrlarini bayon qila olish, til vositasini kerakli va lozim bo'lgan o'rinda qo'llash mantiqan barcha sohada xizmat qiluvchi har bir mutaxassis uchun, umuman har qanday madaniyatli kishi uchun hayotiy zarurat deb hisoblanishi kerak.

Insonning komillik darajasi, bilim doirasi, dunyoqarashining kengligi uning nutqidan namoyon bo'lar ekan, biz bolalarni yoshligidan to'g'ri va erkin so'zlashishi uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. O'z fikrini aniq, tushunarli va tez tushuntira olishida ko'p so'zni bilishi muhimligini hisobga olgan holda, bolalarni kichik sinfdan boshlab lug'atlardan unumli foydalanishga o'rgatish;
2. Turkiy til lug'at boyligi, ifoda imkoniyatlarini namoyon qilish uchun xalq dahosining mahsuli bo'lgan og'zaki nutq imkoniyatlari, xalq orasida mashhur ibora va so'z birikmalaridan unumli yod saqlashga o'rgatish;
3. O'zbek tilda so'zlashuvchi kishilar o'zlashgan qatlamga oid arabchaforscha so'zlarni ham kezi kelganda o'z qatlam so'zlarga ekvivalent, ya'ni sinonimik qatorlar sifatida qo'llash mahoratiga ega bo'lishga o'rgatish;

4. Inson qanchalik ko'p til bilsa, o'z fikrini shunchalik tushunarli ifodalash imkoniyati keng bo'ladi deb hisoblaymiz, shu maqsadda yoshlikdan ona tilidan tashqari biror tilni o'rgatish zarur.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar, ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari nutqida tasviriy vositalardan, mubolag'alardan o'rinli foydalanishi, ko'nikma va malakalarini shakllantirish ularning nutqini rivojlantiradi, takomillashtiradi, salohiyatini oshiradi. Hech kim o'z o'zidan chiroyli so'zlaydigan notiq bo'lib qolmaydi, buning uchun tinimsiz mashq qilish, ko'plab ilmiy va badiiy kitoblarni o'qishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati asoslari. –T., 2008.
2. Mahmudov N. O'qituvchi nutq madaniyati. –T., 2017.
3. Sagdullayev A ., Kostetskiy V. Qadimgi dunyo tarixi. –T., 2017.
4. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Bayoz, 2005.
5. www.nauka.shop.com.